O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy universiteti rektori
_____ I.U.Madjidov
“03” noyabr 2026-yil

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI FAKULTETLARIDA TA’LIM SIFATI KOMISSIYASINING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI

NIZOM

Toshkent – 2026

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining
2026-yil 30-oktabrdagi 2-son
QARORI

Mazkur Nizom Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining 2026-yil 30-oktabrdagi 2-son qarori (yig‘ilish bayonnomasi) bilan ma’qullangan va universitet rektorining 2026-yil 3-noyabrdagi 01-463-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

Nizom universitet rektorining 2026-yil 3-noyabrdagi 01-463-son buyrug‘ining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ta’lim sifati nazorati bo‘limining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

R.K.Musurmanov	Uslubiy ta’minlash va ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘yicha prorektor
Sh.A.Sayfulloyev	Ta’lim sifati nazorati bo‘limi boshlig‘i

Nizomga ilovalar: 1) Komissiya a’zolari sonini hisoblash jadvali; 2) Komissiya tarkibining namunaviy shakli; 3) Komissiya a’zolarining vazifalari; 4) Normativ-huquqiy asoslar.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti fakultetlarida ta’lim sifat komissiyasining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi

NIZOM

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi, 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi va 2017-yil 3-yanvardagi O‘RQ-419-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va PQ-61-son “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-275-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi va 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345-son “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi va 2025-yil 17-iyundagi 369-son “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligining akkreditatsiya indikatorlari, “Oliy ta’lim tashkiloti uslubchilari” kasbiy standarti, universitet Ustavi, universitet Kengashining 2026-yil 30-oktabrdagi 2-son qarori bilan ma’qullangan va universitet rektorining 2026-yil 3-noyabrdagi 01-463-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ta’lim sifati nazorati bo‘limining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom (bundan buyon matnda — Bo‘lim nizomi deb yuritiladi), shu jumladan uning fakultetlarda sifat bo‘yicha mas’ul shaxs belgilanishi hamda talabalar vakillarini sifat komissiyalariga jalb etishga oid talablari hamda ta’lim sifatini ta’minlashga oid boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti (bundan buyon matnda — universitet deb yuritiladi) fakultetlarida tashkil etiladigan ta’lim sifati komissiyasining (bundan buyon matnda — Komissiya deb yuritiladi) maqsadi, vazifalari, funksiyalari, tarkibini shakllantirish, faoliyatini tashkil etish, huquqlari, majburiyatlari va hisobdorlik tartibini belgilaydi.

2. Komissiya fakultet kengashi huzurida jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi kollegial organ bo‘lib, universitet ichki sifat kafolati tizimining fakultet darajasidagi bo‘g‘ini hisoblanadi.

3. Komissiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son qaroriga muvofiq moliyaviy mustaqillik berilgan va shu munosabat bilan PQ-60-son qaroriga asosan akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligiga ega bo‘lgan universitet tomonidan mustaqil belgilanadigan ta’lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarining fakultet darajasidagi tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritadi.

4. Komissiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi (bundan buyon matnda — Agentlik deb yuritiladi) va O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim va ilm-fan vazirligining normativ-huquqiy hujjatlari, universitet Ustavi, universitet Kengashi qarorlari, rektor buyruqlari, universitet Ta’lim sifati nazorati bo‘limi (bundan buyon matnda — Bo‘lim deb yuritiladi) to‘g‘risidagi Nizom hamda mazkur Nizomga amal qiladi.

5. Komissiya ma’muriy jihatdan fakultet kengashiga hisob beradi, metodik jihatdan Bo‘lim tomonidan muvofiqlashtiriladi. Komissiya fakultet dekanining boshqaruv vakolatlarini almashtirmaydi va Bo‘limning nazorat vakolatlarini takrorlamaydi.

6. Komissiya faoliyati qonuniylik, xolislik, dalillarga asoslanganlik, shaffoflik, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, maxfiylik, talabalar manfaatlari, pedagogning sha’ni va kasbiy faoliyatiga hurmat hamda doimiy takomillashtirish tamoyillariga asoslanadi.

7. Komissiya a’zoligi qo‘shimcha shtat birligini tashkil etmaydi. Komissiya a’zolarining faoliyati ularning o‘quv yuklamasining ikkinchi yarmida (o‘quv-uslubiy va tashkiliy ishlar) hamda PQ-61-son qaroriga muvofiq universitet tomonidan joriy etilgan samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosidagi baholash va rag‘batlantirish tizimida belgilangan tartibda hisobga olinadi.

8. Universitet huzuridagi ilmiy-tadqiqot institutlari, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mintaqaviy markazi va akademik litseyda mazkur

Nizom asosida, ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda, tegishli sifat komissiyalari tashkil etilishi mumkin.

9. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

ta’lim dasturi — fakultetda amalga oshiriladigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo‘yicha muayyan malaka berishga qaratilgan maqsadlar, o‘quv natijalari, fanlar, kreditlar, o‘qitish, baholash va resurslar majmui;

ta’lim dasturi vakili — muayyan ta’lim dasturini amalga oshiruvchi (bitiruvchi) kafedraning shu dastur sifati uchun Komissiya oldida axborot beruvchi professor-o‘qituvchisi;

fakultet sifat bo‘yicha mas’ul shaxsi — Bo‘lim nizomining 52-bandiga muvofiq fakultetda sifat masalalari bo‘yicha belgilangan va Bo‘limga funksional jihatdan axborot beruvchi xodim;

tashqi manfaatdor tomon vakili — ish beruvchi, soha mutaxassisi yoki fakultet bitiruvchisi;

akademik mustaqillik — universitetning PQ-60-son qarori bilan berilgan o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari va malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta’lim shakli va o‘qish muddatini belgilash, yangi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarni ochish, ta’lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va joriy etish hamda boshqa huquqlari;

dastur sifati kichik guruhi — Komissiya tarkibida bitta ta’lim dasturi bo‘yicha dastur vakili, talaba va tashqi manfaatdor tomon vakilidan iborat ishchi guruh.

2-bob. Komissiyaning maqsadi va asosiy vazifalari

10. Komissiyaning maqsadi fakultetda ta’lim sifati madaniyatini rivojlantirish, ta’lim dasturlari va o‘quv natijalarining davlat ta’lim standartlari, Milliy malaka ramkasi, kasbiy standartlar va akkreditatsiya talablariga muvofiqligini ta’minlashga, shuningdek, universitetga berilgan akademik mustaqillikdan ta’lim sifatini oshirish maqsadida mas’uliyat bilan foydalanilishiga ko‘maklashishdan iborat.

11. Komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– fakultet ta’lim dasturlari sifatini muntazam monitoring qilish va davriy qayta ko‘rib chiqishda ishtirok etish;

– o‘quv jarayoni, baholash xolisligi va akademik halollikni fakultet darajasida tahlil qilish;

– talabalar, bitiruvchilar va ish beruvchilarning fikrini o‘rganish hamda natijalarini ta’lim dasturlarini takomillashtirishda foydalanish;

– fakultetni va uning ta’lim dasturlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasiga tayyorlashda ishtirok etish;

– aniqlangan nomuvofiqliklar bo‘yicha tuzatish choralari ijrosini kuzatish;

– akademik mustaqillik doirasida qabul qilinadigan o‘quv-uslubiy qarorlarning sifat talablariga muvofiqligini ta’minlashga ko‘maklashish;

– fakultet darajasidagi sifat ma’lumotlarini jamlash va Bo‘limga taqdim etish.

3-bob. Komissiyaning funksiyalari

12. Komissiya ta’lim dasturlari yo‘nalishida:

– har bir ta’lim dasturining maqsadlari, o‘quv natijalari, fan natijalari, o‘qitish usullari va baholash topshiriqlarining o‘zaro mosligini tahlil qiladi;

– ta’lim dasturlari o‘quv natijalarining Milliy malaka ramkasi darajalariga (bakalavriat — 6-daraja, magistratura — 7-daraja), davlat ta’lim standartlari, malaka talablari va kasbiy standartlarga muvofiqligini o‘rganadi;

– o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari va sillabuslar, kreditlar, auditoriya va mustaqil ta’lim yuklamasi, prerekvizitlar va o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanganlikni ko‘rib chiqadi;

– ta’lim dasturlarining yillik operativ qayta ko‘rib chiqilishini tashkil etadi, natijalari bo‘yicha fakultet kengashiga takliflar kiritadi;

– yangi, qo‘shma, dual va masofaviy ta’lim dasturlarini ochish bo‘yicha takliflarga dastlabki sifat xulosasini beradi.

13. Komissiya o‘quv jarayoni va baholash yo‘nalishida:

– fakultet o‘quv reja bajarilishi, dars jadvali va auditoriya yuklamasi bo‘yicha tanlanma o‘rganishlar o‘tkazadi;

– dars kuzatuvlarini Bo‘lim tasdiqlagan mezonlar asosida, rivojlantiruvchi qayta aloqa tamoyilida, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq pedagogning kasbiy faoliyatiga g‘ayriqonuniy aralashuv va asossiz tekshiruvlarga yo‘l qo‘ymagan holda tashkil etadi;

– oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlarining o‘quv natijalariga mosligi, xolisligi va murakkablik darajasini tanlanma tahlil qiladi, pedagogning ta’lim oluvchilar bilimini mustaqil baholashiga ta’sir o‘tkazmaydi;

– baholash natijalari, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va apellyatsiyalar statistikasini ta’lim dasturlari kesimida tahlil qiladi;

– malaka amaliyoti, haq to‘lanadigan amaliyot va dual ta’limning tashkil etilishi va samaradorligini o‘rganadi;

– akademik halollik, plagiat va sun’iy intellektdan nomaqbul foydalanish holatlarining oldini olish bo‘yicha profilaktik tadbirlarni tashkil etadi.

14. Komissiya pedagoglar, talabalar va manfaatdor tomonlar yo‘nalishida:

– professor-o‘qituvchilarning mutaxassisligi va ilmiy-pedagogik salohiyatining o‘qitayotgan fanlariga muvofiqligi bo‘yicha ma’lumotlarni jamlaydi;

– talabalar, bitiruvchilar va ish beruvchilar o‘rtasida Bo‘lim bilan kelishilgan anonim so‘rovnomalarni o‘tkazadi, natijalarini tahlil qiladi va ishtirokchilarga qayta aloqa beradi;

– talabalar davomati, o‘zlashtirishi, chetlashtirilishi, bitirishi va bitiruvchilar bandligini qabul yillari va ta’lim dasturlari kesimida tahlil qiladi;

– talabalar murojaatlarini ko‘rib chiqish amaliyotini o‘rganadi va inklyuziv ta’lim sharoitlari bo‘yicha takliflar kiritadi;

– dars sifatida muammo aniqlangan pedagoglarga metodik yordam, mentorlik va malaka oshirish choralarini tavsiya etadi;

– professor-o‘qituvchilarni samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida baholash va rag‘batlantirishda foydalaniladigan ta’lim sifati ma’lumotlarining (talabalar so‘rovnomasi, dars kuzatuvi, o‘quv natijalari) xolisligi va tekshiriluvchanligi yuzasidan fakultet kengashiga xulosa beradi.

15. Komissiya akkreditatsiya va hisobot yo‘nalishida:

– fakultet ta’lim dasturlari bo‘yicha Agentlik indikatorlari asosida o‘zini o‘zi baholashni o‘tkazadi va dalillar bazasini shakllantiradi;

– maxsus davlat akkreditatsiyasi muddati yaqinlashgan ta’lim dasturlari bo‘yicha tayyorgarlik rejasini tuzadi va ijrosini kuzatadi;

– akkreditatsiya va ichki monitoring natijalari bo‘yicha tuzatish rejalari ijrosini nazorat qiladi;

– fakultetning yillik sifat hisobotini tayyorlaydi va fakultet kengashi hamda Bo‘limga taqdim etadi.

4-bob. Komissiya tarkibi va uni shakllantirish tartibi

16. Komissiya tarkibi doimiy a’zolar, ta’lim dasturlari vakillari, talabalar vakillari va tashqi manfaatdor tomonlar vakillaridan iborat bo‘ladi. Komissiya a’zolarining soni fakultetda amalga oshirilayotgan ta’lim dasturlari soniga qarab ushbu bobda belgilangan tartibda aniqlanadi.

17. Ta’lim dasturlari soni (D) fakultetda joriy o‘quv yilida amalga oshirilayotgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining umumiy soni sifatida hisoblanadi. Bunda:

– bitta ta’lim yo‘nalishining kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllari bitta ta’lim dasturi hisoblanadi;

– qo‘shma (xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari bilan) va dual ta’lim dasturlari alohida ta’lim dasturi hisoblanadi;

– qabul to‘xtatilgan, biroq talabalari ta’lim olayotgan ta’lim dasturlari ham hisobga olinadi;

– ta’lim dasturlari soni har o‘quv yili boshida o‘quv-uslubiy boshqarma ma’lumotlari asosida aniqlanadi.

18. Komissiya a’zolarining soni quyidagi tartibda belgilanadi:

– doimiy a'zolar — 3 nafar: Komissiya raisi, rais o'rinbosari va kotibi (fakultet sifat bo'yicha mas'ul shaxsi);

– ta'lim dasturlari vakillari — har bir ta'lim dasturidan 1 nafardan (D nafar);

– talabalar vakillari — har 3 ta ta'lim dasturiga 1 nafardan, biroq kamida 2 nafar; fakultetda magistratura mutaxassisliklari mavjud bo'lsa, ulardan kamida bittasi magistrant bo'ladi;

– tashqi manfaatdor tomonlar vakillari — har 4 ta ta'lim dasturiga 1 nafardan, biroq kamida 2 nafar (kamida 1 nafar ish beruvchi va 1 nafar bitiruvchi).

19. Komissiya a'zolarining umumiy soni (A) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$A = 3 + D + T + E,$$

bu yerda: D — ta'lim dasturlari soni (ta'lim dasturlari vakillari soni); T — talabalar vakillari soni, T = max (2; D/3, butun songa yaxlitlangan holda yuqoriga); E — tashqi manfaatdor tomonlar vakillari soni, E = max (2; D/4, butun songa yaxlitlangan holda yuqoriga). Hisoblash namunalari mazkur Nizomning 1-ilovasida keltirilgan.

20. Agar fakultetda ta'lim dasturlari soni 12 tadan ortiq bo'lsa, ta'lim dasturlari vakillari tutash ta'lim yo'nalishlari guruhlari (klasterlar) bo'yicha belgilanadi. Har bir klasterga 3 tadan ortiq ta'lim dasturi kiritilmaydi va har bir klasterdan 1 nafar vakil Komissiya tarkibiga kiritiladi. Bunday holatda Komissiya a'zolarining umumiy soni, qoida tariqasida, 25 nafardan oshmasligi lozim. Ta'lim dasturlari soni 24 tadan ortiq bo'lgan fakultetlarda Komissiya a'zolari soni fakultet kengashining asoslantirilgan qarori bilan belgilanadi.

21. Talabalar vakillari Komissiya a'zolari umumiy sonining kamida 15 foizini tashkil etishi lozim. Hisoblangan son bu talabaga javob bermasa, talabalar vakillari soni tegishli ravishda oshiriladi.

22. Komissiya a'zolarining hisoblangan umumiy soni juft bo'lsa, ovozlar teng bo'linganda rais ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

23. Komissiya raisi fakultet kengashi tavsiyasiga ko'ra ta'lim sohasida kamida 5 yillik tajribaga ega, qoida tariqasida, ilmiy darajali professor-o'qituvchilar orasidan belgilanadi. Fakultetda bunday professor-o'qituvchi yetarli bo'lmagan hollarda fakultet kengashi tavsiyasiga ko'ra ko'p yillik pedagogik tajribaga ega professor-o'qituvchi belgilanishi mumkin. Fakultet dekani va dekan o'rinbosarlari Komissiya raisi bo'la olmaydi; dekan Komissiya majlislarida maslahat ovozi huquqi bilan ishtirok etishi mumkin.

24. Ta'lim dasturi vakili tegishli bitiruvchi kafedra majlisi tavsiyasiga ko'ra, talabalar vakillari fakultet talabalar kengashi tavsiyasiga ko'ra yuqori o'zlashtirish va faollik ko'rsatkichlari asosida, tashqi manfaatdor tomonlar vakillari ularning yozma roziligi asosida belgilanadi.

25. Kafedra mudiri o‘z kafedrasi amalga oshiradigan ta’lim dasturi vakili bo‘lishi mumkin, biroq o‘zi bevosita mas’ul bo‘lgan jarayonni baholashda yakka baholovchi sifatida ishtirok etmaydi.

26. Har bir ta’lim dasturi bo‘yicha Komissiya tarkibida dastur vakili, talabalar vakili va tashqi manfaatdor tomon vakilidan iborat dastur sifati kichik guruhi tuziladi. Talabalar va tashqi manfaatdor tomonlar vakillari bir nechta kichik guruh ishida ishtirok etishi mumkin.

27. Komissiya tarkibi fakultet kengashining qarori asosida mas’ul prorektorning taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan har o‘quv yilining 15-sentabriga qadar tasdiqlanadi. Komissiya tarkibining namunaviy shakli mazkur Nizomning 2-ilovasida keltirilgan.

28. Komissiya a’zolarining vakolat muddati — bir o‘quv yili. Doimiy a’zolar va ta’lim dasturlari vakillari ketma-ket ko‘pi bilan uch muddatga belgilanishi mumkin. Talabalar vakillari talaba maqomini yo‘qotganda, boshqa a’zolar mehnat munosabatlari tugatilganda yoki o‘z xohishiga ko‘ra Komissiya tarkibidan chiqariladi va ularning o‘rniga shu tartibda yangi a’zo belgilanadi.

29. Ta’lim dasturlari soni o‘quv yili davomida o‘zgargan taqdirda Komissiya tarkibiga tegishli o‘zgartirishlar bir oy muddatda shu tartibda kiritiladi.

5-bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish

30. Komissiya Bo‘limning yillik ish rejasi bilan uyg‘unlashtirilgan, fakultet kengashi tomonidan ma’qullangan va mas’ul prorektor bilan kelishilgan yillik ish rejasi asosida faoliyat yuritadi.

31. Komissiya majlislari o‘quv yili davomida kamida har ikki oyda bir marta, o‘quv yilida kamida besh marta o‘tkaziladi. Zarur hollarda rais, Bo‘lim boshlig‘i yoki Komissiya a’zolarining kamida uchdan bir qismi tashabbusi bilan navbatdan tashqari majlis chaqiriladi.

32. Komissiya majlisi uning a’zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Majlislar masofaviy yoki aralash shaklda ham o‘tkazilishi mumkin.

33. Komissiya qarorlari ochiq ovoz berish yo‘li bilan majlisda ishtirok etgan a’zolarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Pedagogning shaxsiga oid masalalar bo‘yicha qarorlar yopiq ovoz berish orqali qabul qilinishi mumkin.

34. Komissiya a’zosi muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lsa, bu haqda oldindan ma’lum qiladi va ovoz berishda ishtirok etmaydi.

35. Komissiya majlislari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomani rais va kotib imzolaydi, uning nusxasi uch ish kuni ichida Bo‘limga yuboriladi.

36. Komissiya qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, fakultet kengashi, dekan va kafedralar tomonidan majburiy ko‘rib chiqiladi. Ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha Komissiyaga bir oy muddatda javob beriladi.

37. O‘rganishlar Bo‘lim tasdiqlagan mezonlar va shakllar asosida o‘tkaziladi. Dalillar kamida ikki mustaqil manba orqali tekshiriladi, natijalar “muvofiq”, “qisman muvofiq”, “nomuvofiq”, “kuzatuv” yoki “ilg‘or amaliyot” toifalarida qayd etiladi.

38. Talabalar, pedagog va ta’lim jarayoni xavfsizligi, akademik halollik yoki akkreditatsiya maqomiga jiddiy xavf aniqlansa, Komissiya raisi bu haqda dekan va Bo‘lim boshlig‘iga darhol axborot beradi.

6-bob. Komissiyaning huquqlari

39. Komissiya o‘z vakolati doirasida quyidagi huquqlarga ega:

– fakultet, kafedralar va boshqa tarkibiy tuzilmalardan ta’lim sifatiga oid zarur hujjat va ma’lumotlarni belgilangan muddatda so‘rash;

– o‘quv mashg‘ulotlari, imtihonlar va amaliyotni tasdiqlangan reja va tartibda kuzatish;

– axborot tizimlaridagi fakultet ta’lim jarayoniga oid ma’lumotlardan ruxsat etilgan doirada foydalanish;

– kafedra mudirlari, professor-o‘qituvchilar va talabalarni Komissiya majlislariga taklif etish;

– ta’lim dasturlari va o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha fakultet kengashi va Bo‘limga takliflar kiritish;

– professor-o‘qituvchilarni rag‘batlantirish yoki ularga metodik yordam ko‘rsatish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar berish;

– zarur hollarda Bo‘limdan metodik yordam va ekspert jalb etishni so‘rash.

7-bob. Komissiyaning majburiyatlari va javobgarligi

40. Komissiya quyidagilarga majbur:

– xulosalarni qonunchilik, tasdiqlangan mezonlar va tekshiriladigan dalillarga asoslash;

– o‘rganishlarni o‘quv jarayoniga ortiqcha xalaqit bermaydigan tarzda o‘tkazish;

– pedagogning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilish, uning kasbiy faoliyatiga g‘ayriqonuniy aralashmaslik;

– shaxsga doir ma’lumotlar va xizmat sirini himoya qilish, so‘rovnoma ishtirokchilari va murojaat etuvchilarning maxfiyligini ta’minlash;

– aniqlangan muammolar bilan birga ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar berish;

– hujjatlar va dalillarning belgilangan muddatda saqlanishini ta’minlash.

41. Komissiya raisi va a'zolari xulosalarning xolisligi, ma'lumotlarning saqlanishi va mazkur Nizom talablariga rioya etilishi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javob beradi.

8-bob. Hisobdorlik va o'zaro hamkorlik

42. Komissiya har semestr yakunida fakultet kengashiga va Bo'limga qisqa tahliliy axborot, har o'quv yili yakunida (iyun oyida) fakultetning yillik sifat hisobotini taqdim etadi.

42. Fakultetning yillik sifat hisoboti kamida quyidagilarni qamrab oladi: ta'lim dasturlari holati, o'quv natijalari va baholash, talabalar va bitiruvchilar fikri, pedagoglar, resurslar, akademik halollik, akkreditatsiyaga tayyorgarlik, aniqlangan xavflar va amalga oshirilgan yaxshilanishlar.

43. Bo'lim Komissiyaga metodik yordam ko'rsatadi, uning a'zolari uchun o'quv seminarlari o'tkazadi, monitoring mezonlari va hisobot shakllarini tasdiqlaydi hamda fakultet hisobotlarini universitet Kengashiga taqdim etiladigan yillik ichki sifat hisobotiga umumlashtiradi.

45. Komissiya o'z faoliyatini fakultet dekanati, kafedralar, fakultet talabalar kengashi, o'quv-uslubiy boshqarma, Bo'lim va universitetning boshqa tarkibiy tuzilmalari bilan hamkorlikda olib boradi.

9-bob. Hujjatlar va faoliyat samaradorligi

46. Komissiyada quyidagi hujjatlar yuritiladi: Komissiya tarkibi to'g'risidagi buyruq, yillik ish rejasi, majlislar bayonnomalari, o'rganish ma'lumotnomalari, so'rovnoma natijalari, akkreditatsiya dalillari reyestri, tuzatish rejalari va ularning ijrosi, semestr va yillik hisobotlar.

47. Komissiya hujjatlari elektron shaklda Bo'lim yuritadigan yagona reyestrda saqlanadi. Hujjatlarni saqlash muddatlari fakultet ishlar nomenklaturasida belgilanadi.

48. Komissiya faoliyati o'tkazilgan majlislar soni bilan emas, aniqlangan muammolarning bartaraf etilishi, ta'lim dasturlari sifati ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, akkreditatsiyaga tayyorgarlik darajasi va manfaatdor tomonlar ishonchi bilan baholanadi.

49. Komissiya raisi va kotibiga Komissiya tarkibi rektor buyrug'i bilan tasdiqlangandan so'ng, o'quv yili boshida, uslubiy ta'minlash va ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha prorektorning rektor nomiga kiritgan bildirishnomasi asosida Komissiyaning vakolat muddati (bir o'quv yili) davomida oylik lavozim maoshiga ustama belgilanadi. Ustama universitet tomonidan belgilangan xodimlarni moddiy rag'batlantirish tartibida universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan to'lanadi. Ustamaning miqdori rektor buyrug'i bilan belgilanadi. Komissiya raisi yoki kotibi o'z vazifalarini lozim darajada bajarmagan, Komissiya tarkibidan

chiqarilgan yoki mehnat munosabatlari tugatilgan taqdirda, prorektorning bildirishnomasiga ko‘ra ustama to‘lash to‘xtatiladi.

50. Komissiya raisi va kotibi 49-bandda nazarda tutilgan ustamadan tashqari, har semestr yoki o‘quv yili yakunida mazkur Nizomning 48-bandida belgilangan samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida alohida moddiy rag‘batlantirilishi mumkin. Bunda fakultet kengashining qarori va Ta’lim sifati nazorati bo‘limining xulosasiga ko‘ra mas’ul prorektor rektor nomiga bildirishnoma kiritadi. Bildirishnomada quyidagilar ko‘rsatiladi: Komissiya ish rejasining bajarilishi, hisobotlarning o‘z vaqtida va sifatli taqdim etilishi, tuzatish rejalari ijrosi, ta’lim dasturlari sifati ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi va akkreditatsiyaga tayyorgarlik natijalari asosida uning miqdori rektor buyrug‘i bilan belgilanadi.

10-bob. Yakunlovchi qoidalar

51. Mazkur Nizom universitet Kengashi qarori bilan ma’qullanadi va rektor tomonidan tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

52. Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar qonunchilik, Agentlik indikatorlari, universitet tuzilmasi yoki Bo‘lim nizomi o‘zgarganda mazkur Nizomni qabul qilish uchun belgilangan tartibda kiritiladi.

53. Mazkur Nizom talablari bilan fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va Komissiya a’zolari tanishtiriladi.

54. Nizomda tartibga solinmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, universitet Ustavi va Bo‘lim nizomiga muvofiq hal etiladi.

55. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Fakultet ta'lim sifati komissiyasi to'g'risidagi Nizomga 1-ilova

Komissiya a'zolari sonini fakultetdagi ta'lim dasturlari soniga qarab hisoblash jadvali

Ta'lim dasturlari soni (D)	Doimiy a'zolar	Ta'lim dasturlari vakillari	Talabalar vakillari (T)	Tashqi manfaatdor tomonlar (E)	Jami a'zolar (A)
1	3	1	2	2	8
2	3	2	2	2	9
3	3	3	2	2	10
4	3	4	2	2	11
5	3	5	2	2	12
6	3	6	2	2	13
7	3	7	3	2	15
8	3	8	3	2	16
9	3	9	3	3	18
10	3	10	4	3	20
11	3	11	4	3	21
12	3	12	4	3	22
15*	3	5 (klaster)	5	4	17
18*	3	6 (klaster)	6	5	20
24*	3	8 (klaster)	8	6	25

** Ta'lim dasturlari soni 12 tadan ortiq bo'lganda ta'lim dasturlari vakillari tutash yo'nalishlar klasterlari bo'yicha (har bir klasterda ko'pi bilan 3 ta dastur) belgilanadi; Komissiya a'zolari soni 25 nafardan oshmaydi.*

Izoh: talabalar vakillari Komissiya a'zolari umumiy sonining kamida 15 foizini tashkil etadi; fakultetda magistratura mutaxassisliklari mavjud bo'lsa, talabalar vakillaridan kamida bittasi magistrant bo'ladi. Tashqi manfaatdor tomonlar vakillaridan kamida bittasi ish beruvchi, bittasi bitiruvchi bo'ladi.

Misol: fakultetda 7 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 4 ta magistratura mutaxassisligi mavjud (D = 11). Komissiya tarkibi: 3 doimiy a'zo + 11 dastur vakili + 4 talaba (kamida 1 nafari magistrant) + 3 tashqi vakil (kamida 1 ish beruvchi va 1 bitiruvchi) = 21 nafar.

Fakultet ta'lim sifati komissiyasi to'g'risidagi Nizomga 2-ilova

_____ fakulteti ta'lim sifati komissiyasining

20__/20__ o'quv yili uchun tarkibi (namunaviy shakl)

Fakultetdagi ta'lim dasturlari soni: bakalavriat — ___ ta, magistratura — ___ ta, jami (D) — ___ ta. Komissiya a'zolarining hisoblangan soni (A) — ___ nafar.

№	F.I.Sh.	Lavozimi (kursi), ish joyi	Komissiyadagi maqomi	Vakil bo'lgan ta'lim dasturi (kodi, nomi)
1			Rais	—
2			Rais o'rinbosari	—
3			Kotib (fakultet sifat bo'yicha mas'ul shaxsi)	—
4			Ta'lim dasturi vakili	
5			Ta'lim dasturi vakili	
6			...	—
7			Talabalar vakili (bakalavr)	—
8			Talabalar vakili (magistrant)	—
9			Ish beruvchi vakili	—
10			Bitiruvchi vakili	—

Fakultet ta'lim sifati komissiyasi to'g'risidagi Nizomga 3-ilova

Fakultet ta'lim sifati komissiyasi a'zolarining vazifalari

1. Komissiyaning barcha a'zolari uchun umumiy majburiyat va huquqlar

1.1. Komissiya majlislarida muntazam ishtirok etish, uzrli sababsiz ikki marta ketma-ket qatnashmaslik Komissiya tarkibidan chiqarish uchun asos bo'ladi.

1.2. Mazkur Nizom, Bo'lim mezonlari va tasdiqlangan shakllar asosida ishlash.

1.3. Manfaatlar to'qnashuvi haqida oldindan ma'lum qilish, shaxsga doir ma'lumotlar va xizmat sirini oshkor etmaslik.

1.4. Pedagogning sha'ni va kasbiy faoliyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

Komissiya a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

–Komissiya muhokamasiga masalalar va takliflar kiritish;

–Komissiya qarorlariga alohida fikr bildirish va uni bayonnomaga kiritishni talab qilish;

–vazifalarini bajarish uchun zarur ma'lumotlar bilan tanishish;

–Bo'lim tomonidan tashkil etiladigan seminar va treninglarda ishtirok etish.

2. Komissiya raisi

2.1. Komissiya faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, uning yillik ish rejasini ishlab chiqishni tashkil etadi va fakultet kengashida ma'qullash uchun kiritadi.

2.2. Komissiya majlislarini chaqiradi, kun tartibini belgilaydi va majlislarni olib boradi.

2.3. Komissiya a'zolari va dastur sifati kichik guruhlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, ularning bajarilishini nazorat qiladi.

2.4. Komissiya qarorlari va tavsiyalarini fakultet kengashi, dekan va kafedralarga yetkazadi, ularning ko'rib chiqilishi va ijrosini kuzatadi.

2.5. Fakultetning semestr axboroti va yillik sifat hisobotini imzolaydi hamda fakultet kengashi va Bo'limga taqdim etadi.

2.6. Fakultetni akkreditatsiyaga tayyorlash bo'yicha o'zini o'zi baholash ishlariga rahbarlik qiladi.

2.7. Jiddiy sifat xavfi aniqlanganda dekan va Bo'lim boshlig'iga darhol axborot beradi.

2.8. Komissiya ishida xolislik, maxfiylik va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik talablariga rioya etilishini ta'minlaydi.

Qo'yiladigan talablar: ta'lim sohasida kamida 5 yillik tajribaga ega, qoida tariqasida, ilmiy darajali professor-o'qituvchi (fakultetda bunday professor-o'qituvchi yetarli bo'lmaganda fakultet kengashi tavsiyasiga ko'ra ko'p yillik pedagogik tajribaga ega professor-o'qituvchi); ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha

malaka oshirgan bo‘lishi ustunlik hisoblanadi; Milliy malaka ramkasining kamida 7-darajasiga muvofiq malaka.

3. Komissiya raisining o‘rinbosari

3.1. Rais yo‘qligida uning vazifalarini bajaradi.

3.2. Ta’lim dasturlarini yillik qayta ko‘rib chiqish va o‘quv natijalarining Milliy malaka ramkasi, davlat ta’lim standartlari va kasbiy standartlarga muvofiqligini tahlil qilish ishlarini muvofiqlashtiradi.

3.3. Dars kuzatuvlari jadvalini tuzadi, kuzatuvlar Bo‘lim mezonlari asosida va pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashmagan holda o‘tkazilishini ta’minlaydi.

3.4. Baholash topshiriqlari tanlanma tahlili natijalarini umumlashtiradi.

3.5. Tuzatish rejalari ijrosi monitoringini tashkil etadi.

Qo‘yiladigan talablar: ilmiy darajaga yoki ta’lim sohasida kamida 3 yillik tajribaga ega professor-o‘qituvchi.

4. Komissiya kotibi (fakultet sifat bo‘yicha mas’ul shaxsi)

4.1. Komissiya majlislarini tayyorlaydi: a’zolarni majlis vaqti va kun tartibi haqida kamida uch ish kuni oldin xabardor qiladi, materiallarni tarqatadi.

4.2. Majlis bayonnomalarini yuritadi va ularning nusxasini uch ish kuni ichida Bo‘limga yuboradi.

4.3. Komissiya hujjatlari, akkreditatsiya dalillari va so‘rovnoma natijalarini Bo‘lim yuritadigan yagona elektron reyestrga kiritadi, hujjatlarning amaldagi tahririni kuzatadi.

4.4. Fakultet ta’lim sifati ko‘rsatkichlari (davomat, o‘zlashtirish, chetlashtirish, bandlik, so‘rovnomalar) bo‘yicha ma’lumotlarni jamlaydi va Bo‘limga belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

4.5. Bo‘lim nizomining 52-bandiga muvofiq Bo‘limga funksional jihatdan axborot beradi, Bo‘lim o‘tkazadigan seminarlarda ishtirok etadi.

4.6. Komissiya qarorlari va tuzatish rejalari ijrosi bo‘yicha nazorat jadvalini yuritadi.

4.7. Anonim so‘rovnomalarni tashkil etishda ishtirokchilar maxfiyligini ta’minlaydi.

Qo‘yiladigan talablar: oliy ma’lumotli (Milliy malaka ramkasining kamida 6-darajasi), ta’lim sohasida kamida 2 yillik tajribaga ega professor-o‘qituvchi yoki fakultet xodimi; elektron ish yuritish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi bilishi lozim.

5. Ta’lim dasturi vakili

5.1. O‘zi vakil bo‘lgan ta’lim dasturi bo‘yicha dastur sifati kichik guruhiga rahbarlik qiladi.

5.2. Ta’lim dasturining o‘quv rejasi, o‘quv dasturlari va sillabuslari, o‘quv natijalari va baholash topshiriqlarining o‘zaro mosligini tahlil qiladi.

5.3. Dasturni yillik operativ qayta ko‘rib chiqish natijalarini Komissiyaga taqdim etadi.

5.4. Dastur bo‘yicha talabalar, bitiruvchilar va ish beruvchilar so‘rovnomalari natijalarini tahlil qiladi va takomillashtirish takliflarini tayyorlaydi.

5.5. Dasturni maxsus davlat akkreditatsiyasiga tayyorlashda o‘zini o‘zi baholash hisobotining tegishli qismlari va dalillar bazasini shakllantiradi.

5.6. Dastur bo‘yicha tuzatish rejalari ijrosi haqida Komissiyaga axborot beradi.

Qo‘yiladigan talablar: tegishli ta’lim dasturini amalga oshiruvchi kafedraning, qoida tariqasida, ilmiy darajaga ega professor-o‘qituvchisi.

6. Talabalar vakili

6.1. Talabalar fikri va takliflarini Komissiya muhokamasiga olib chiqadi.

6.2. Talabalar so‘rovnomalarini tashkil etishda, ularning qamrovini oshirishda va natijalarini talabalarga yetkazishda ishtirok etadi.

6.3. Dastur sifati kichik guruhlarida o‘quv jarayoni, baholash xolisligi, o‘quv resurslari va amaliyot sifati bo‘yicha talabalar nuqtai nazarini bildiradi.

6.4. Akademik halollik tamoyillarini talabalar orasida targ‘ib qiladi.

6.5. Akkreditatsiya jarayonida tashqi ekspertlar bilan uchrashuvlarda erkin va xolis ishtirok etadi.

Qo‘yiladigan talablar: fakultetning ikkinchi va undan yuqori kurs talabasi yoki magistranti; akademik qarzdorligi bo‘lmagan, intizomiy jazo olmagan bo‘lishi lozim.

7. Tashqi manfaatdor tomon (ish beruvchi yoki bitiruvchi) vakili

7.1. Ta’lim dasturlari o‘quv natijalarining mehnat bozori talablari va kasbiy standartlarga mosligi bo‘yicha fikr bildiradi.

7.2. Malaka amaliyoti, dual ta’lim va bitiruvchilar bandligini oshirish bo‘yicha takliflar kiritadi.

7.3. Ish beruvchilar va bitiruvchilar so‘rovnomalarini o‘tkazishda ko‘maklashadi.

7.4. Ta’lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va akkreditatsiyaga tayyorgarlik jarayonida ekspert sifatida ishtirok etadi.

Qo‘yiladigan talablar: tegishli sohada kamida 3 yillik ish tajribasiga ega ish beruvchi yoki soha mutaxassisi; bitiruvchi vakili fakultetni so‘nggi besh yil ichida tamomlagan bo‘lishi lozim.

Fakultet ta'lim sifati komissiyasi to'g'risidagi Nizomga 4-ilova

Nizomni ishlab chiqishda asos qilib olingan normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprelda referendumda qabul qilingan).

2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O'RQ-901-son "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-son "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi va 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunlari.

5. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi O'RQ-641-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (O'zbekiston Milliy universiteti 1-ilovaning 36-bandida keltirilgan).

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-275-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345-son "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi 369-son “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi 836-son “Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2025-yil 16-yanvardagi 14-son “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2024-yil 8-yanvardagi 11-son “Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining haq to‘lanadigan malaka amaliyotini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi qarorlari.

15. Agentlik direktorining 2025-yil 14-noyabrdagi 2-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazishda baholash mezonlari bo‘yicha indikatorlar (Adliya vazirligi tomonidan 3716-son bilan ro‘yxatga olingan).

16. Agentlik direktorining 2025-yil 2-dekabrdagi 5-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazishda baholash mezonlari bo‘yicha indikatorlar (Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 23-dekabrda 3732-son bilan ro‘yxatga olingan).

17. “Oliy ta’lim tashkiloti uslubchilari” kasbiy standarti (reyestr raqami UZ-KS-2026-T1.0-0155).

18. ESG 2015 (Yevropa oliy ta’lim hududida sifatni ta’minlash standartlari va tavsiyalari), ISO 21001 — milliy qonunchilikka zid bo‘lmagan qismida.

19. Universitet Ustavi, universitet Ta’lim sifati nazorati bo‘limining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom va Bo‘lim xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari.